O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 27 - dekabr 344-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 22 noyabrdagi “Viloyat hududidan nimstansiya inshootlari qurish uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 576-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer maydonlarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ma’muriy Reglamentiga asosan hamda **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 22 noyabrdagi “Viloyat hududidan nimstansiya inshootlari qurish uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi** 576-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 22 noyabrdagi “Viloyat hududidan nimstansiya inshootlari qurish uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi** 576-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani, “Bunyodkor” MFYdagi 0,24 gektar davlat zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlari Energetika vazirligiga **Yangi 110/35/10 kV kuchlanishli Qizg‘aldoq nimstansiyasi** inshooti qurilishi uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin.

3. Buyurtmachiga:

Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtma berish hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

Loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

Qurilish ishlarini boshlash bo‘yicha Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

Mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olish vazifalari yuklatilganligi inobatga olinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) mazkur qarorga muvofiq viloyat yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Tuman qurilish Qurilish va uy-joy kommunal bo‘limi (N.Bazarbav)ga qurilish loyiha hujjatarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilishiga amaliy yordam berish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari
S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**